



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIY MEROS AGENTLIGI**

**AGENCY OF CULTURAL HERITAGE OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

Pochta manzili: 100029, Toshkent shahar, Taras Shevchenko ko‘chasi, 1-uy.

e-mail: [info@madaniymeros.uz](mailto:info@madaniymeros.uz), [tmma@exat.uz](mailto:tmma@exat.uz)

2025-yil 7-fevral.

02-11/480-sonli

**Toshkent shahar  
madaniy meros boshqarmasi**

Madaniy meros agentligi huzuridagi Ilmiy-ekspert kengashining 2025-yil 7-fevral kuni Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan 2-sonli navbatdan tashqari yig‘ilish bayoni ma‘lumot va ijro uchun yuborilmoqda.

Ilova: \_\_ varaqda.

**Direktor birinchi  
o‘rinbosari, Kengash raisi**



**T. Kuzyev**

02-11/09  
07.02.2025



“TASDIQLAYMAN”

Ilmiy-ekspert kengashi raisi

T. Kuziyev

2025 yil “ ”

**Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, “O‘zgarish” ko‘chasi,  
18-manzilda bo‘lib o‘tgan navbatdan tashqari yig‘ilish  
BAYONNOMASI № 2**

**2025-yil 7-fevral**

**Toshkent shahri**

**Raislik qiluvchi:**

T.Kuziev – Ilmiy-ekspert kengashi raisi;

**Qatnashdilar:**

Ilmiy-ekspert kengashi a‘zolari:, F.Usmonov,  
X.Sultonov, Sh.Pidaev, B.Raxmanov, M.Saidov,  
I.Yusupov hamda M.Mumin-Axunova

**Qatnashmaganlar:**

A.Kuranov.

**Mas’ul kotib:**

X.Haydarov.

**KUN TARTIBI:**

1. Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, Nurafshon ko‘chasida joylashgan “Chilonzor oqtepesi” arxeologiya yodgorligining atrofini obodonlashtirish hamda yodgorlik hududini devor bilan o‘rash bo‘yicha tayyorlangan loyiha.

**Asos:** Toshkent shahar madaniy meros boshqarmasining 24-01.2025-yil 01-02/48-sonli xati hamda boshqarmaning dastlabki xulosasi.

2. Toshkent shahar, Yakkasaroy tumani, Shota Rustaveli ko‘chasi, 22-manzilda joylashgan “4 qavatli turarjoy binosi”ni;

Chilonzor tumani, Beshyog‘och ko‘chasi, 16, 18-manzilda joylashgan “4 qavatli turarjoy binolari”ni moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari milliy ro‘yxatiga kiritish bo‘yicha taklif.

**Asos:** Toshkent shahar madaniy meros boshqarmasining 06.02.2025-yil 01-02/107-sonli xati hamda Toshkent shahar hokimligining 03.02.2025-yil 04-42-sonli xati.

**Kun tartibidagi masalalarni atroflicha o‘rganib,  
muhokama qilib, Ilmiy-ekspert kengashi  
QAROR QILADI:**

1. Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, Nurafshon ko‘chasida joylashgan “Chilonzor oqtepesi” arxeologiya yodgorligi hududi va atrofini obodonlashtirish, yodgorlik maydonini devor bilan o‘rash loyihasini, yodgorlikda bir necha yillardan buyon arxeologik qazishma va tadqiqot olib borayotgan Milliy arxeologiya markazi yetakchi ilmiy xodimi M.I.Filanovich, arxitektor Temur Nurilinlar tomonidan ishlab chiqilgan “muzeylashtirish” takliflarini inobatga olish;

-loyihalashtirilgan devor tashqi ko'rinishi va kirish darvozasini VI-XII asrlardagi g'ishtlar o'lchamlari va paxsa devor rangi ko'rinishida;

-loyihadagi ishlarni amalga oshirishda Milliy arxeologiya markazi yetakchi ilmiy xodimi M.I.Filanovichni jalb qilgan holda amalga oshirish sharti bilan ma'qullansin.

Loyihadagi ishlarning amalga oshirilish nazorati loyiha muallifi va (Vazirlar Mahkamasining 15.10.2021-yil, 649-qaroriga asosan) Toshkent shahar madaniy meros boshqarmasi zimmasiga yuklatilsin.

**2. O'zbekiston Respublikasi "Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida" 30.08.2001-yil, 269-II-son Qonunining 12-moddasiga asosan Toshkent shahar, Yakkasaroy tumani, Shota Rustaveli ko'chasi, 22-manzilda joylashgan "4 qavatli turarjoy binosi"ning;**

Chilonzor tumani, Beshyog'och ko'chasi, 16, 18-manzilda joylashgan "**4 qavatli turarjoy binolari**"ning tarixiy, ilmiy, badiiy ahamiyati hamda XX asr birinchi yarmi Toshkent me'morchiligining yorqin namunasi ekanligini inobatga olib, mazkur obyektlarni **respublika toifasidagi** arxitektura yodgorligi sifatida moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxatiga kiritish taklifi ma'qullansin.

Madaniy meros agentligining Obyektlardan foydalanish, davlat-xususiy sheriklikni joriy etish va kadastr hisobini yuritish bo'limi ushbu obyektlarni o'rnatilgan tartibda Vazirlar Mahkamasining 04.10.2019-yil 846-son qaroriga qo'shimcha va o'zgartirish kiritish choralarini ko'rsin.

**Kengash mas'ul kotibi**



**X. Haydarov**